INGLIZ VA TURK TILLARIDAGI TA'LIM TERMINLARINING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ceran Cansin Demirci
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)
yōnalişi 1 – bosqiç magistranti,
Toşkent davlat Şarqşunoslik universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24359734

Annotatsiya: Maqolada ingliz va turk tillaridagi ta'lim sohasiga oid terminlarning struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Terminlar tuzilişiga kōra sodda, yasama, qōşma terminlar va terminologik birikmalarga ajratilib, ularning hosil bōliş usullari, ya'ni affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartma va kalkalaş yoritiladi. Terminlarning semantik xususiyatlari, jumladan, monosemiya va polisemiya, sinonimiya, terminologik maydon va ōzlaşma qatlam masalalari kōrib çiqiladi. Tadqiqot natijalari ikki tizimdagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlaşga xizmat qiladi. Ingliz tilida analitik birikmalar va qisqartmalar, turk tilida esa agglyutinativ affiksatsiya va izofa qurilmalari yetakçi ekani asoslanadi.
Kalit sōzlar: ta'lim terminologiyasi, termin, struktur-semantik tahlil, qiyosiy-tipologik tadqiqot, ingliz tili, turk tili, sōz yasalişi, terminologik birikma, affiksatsiya, kalka, semantik maydon.

Abstract: This article analyses the structural and semantic features of educational terms in English and Turkish from a comparative-typological perspective. The terms are classified by structure into simple, derived and compound terms and terminological phrases. Their formation processes are examined, namely affixation, compounding, abbreviation and calquing. The article also considers the semantic features of the terms, including monosemy and polysemy, synonymy, the terminological field and the layer of borrowed terms. The findings identify what the two term systems share and where they differ. The study argues that analytical phrases and abbreviations predominate in English, while agglutinative affixation and izafet constructions prevail in Turkish.
Keywords: educational terminology, term, structural-semantic analysis, comparative-typological study, English, Turkish, word formation, terminological phrase, affixation, calque, semantic field.

Kiriş

Globallaşuv va ta'lim tizimlarining xalqaro integratsiyasi ta'lim terminologiyasini qiyosiy ōrganişni dolzarb vazifaga aylantirdi. Bolonya jarayoni, kredit-modul tizimi, xalqaro akkreditatsiya va akademik mobillik bilan birga ingliz tilidan kōplab yangi terminlar boşqa tillarga kirib kelmoqda. Bu terminlarni ona tiliga tōğri va izçil kōçiriş uçun ularning tuzilişi va ma'no xususiyatlarini çuqur biliş talab etiladi.

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro ta'lim makonining asosiy tili hisoblanadi. Turk tili esa turkiy tillar orasida ta'lim terminologiyasi eng tizimli işlangan tillardan biridir. 1932-yilda Turk tili qurumi (*Türk Dil Kurumu*) taşkil etilgandan sōng arab va fors tillaridan ōzlaşgan kōplab ta'lim terminlari turkiy asosdagi sōzlar bilan almaştirildi: *maarif* → *eğitim*, *muallim* → *öğretmen*, *talebe* → *öğrenci*, *imtihan* → *sınav*, *mektep* → *okul*. Bu tajriba ōzbek ta'lim terminologiyasini işlab çiqiş uçun ham amaliy ahamiyatga ega.

Termin va terminologiya nazariyasi A.A.Reformatskiy, D.S.Lotte, A.V.Superanskaya, V.M.Leychik, J.C. Sager, M.T.Cabré kabi olimlarning işlarida keng yoritilgan. Ammo ingliz va turk tillaridagi ta'lim

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

terminlarini struktur-semantik jihatdan bevosita qiyoslagan tadqiqotlar hozirça kam. Mavzuning dolzarbligi şu bilan belgilanadi.

Asosiy qism

Tuzilişiga kōra ikki tildagi ta'lim terminlari beş turga bōlinadi: sodda, yasama, qōşma terminlar, terminologik birikmalar va qisqartmalar. Quyidagi jadvalda har bir turga misollar keltirilgan.

Struktur turi	Ingliz tili	Turk tili
Sodda (tub) termin	school, class, test, grade, course	okul, ders, sınav, sınıf, not
Yasama termin	teacher, trainee, assessment, education, undergraduate	öğretmen, öğrenci, eğitim, öğretmenlik, eğitimci
Qōşma termin	classroom, textbook, homework, coursework, e-learning	anaokulu, ilkokul, ortaokul, yükseköğretim
Terminologik birikma	higher education, lesson plan, lifelong learning	ders kitabı, uzaktan eğitim, ölçme ve değerlendirme
Qisqartma	GPA, ECTS, EFL, MOOC, STEM	YÖK, MEB, ÖSYM, YKS, AKTS

Ingliz tilida ta'lim terminlari ham suffiks, ham prefiks yordamida yasaladi. Şaxs nomlari *-er/-or* (*teacher, instructor, supervisor*) va *-ee* (*trainee, examinee*) suffikslari bilan hosil bōladi. Jarayon va natija nomlari *-tion/-sion* (*education, evaluation, admission*), *-ment* (*assessment, enrolment*), *-ing* (*learning, training*) va *-ship* (*scholarship, internship*) orqali yasaladi. Prefikslar ham faol: *pre-* (*preschool*), *post-* (*postgraduate*), *under-* (*undergraduate*), *re-* (*retraining*), *inter-* (*interdisciplinary*), *multi-* (*multilingual*).

Turk tilida esa agglyutinativ suffiksatsiya yetakçi. Bir ōzakdan izma-iz suffikslar qōşilib, butun bir terminlar zanjiri hosil bōladi: *öğren-* → *öğret-* → *öğret-men* → *öğretmen-lik*; *eğit-* → *eğit-im* → *eğitim-ci* → *eğitimci-lik*. Asosiy suffikslar: *-im/-ım* (*eğitim, öğretim, öğrenim*), *-men* (*öğretmen*), *-ci* (*öğrenci, eğitimci*), *-lik* (*öğretmenlik*), *-me/-ma* (*ölçme, değerlendirme, öğrenme*), *-sel/-sal* (*eğitsel*). Prefiksatsiya turk tiliga xos emas; *önlisans* kabi kam sonli misollarda *ön* ('old') sōzi prefiks vazifasida keladi.

Ingliz tilida qōşma terminlar kōpinça qōşib (*classroom, textbook, homework, headteacher*) yoki çiziqça bilan (*e-learning, self-study, part-time*) yoziladi. Turk tilida qōşma terminlar soni nisbatan kamçilikni taşkil etadi va asosan ta'lim bosqiçlari nomlarida uçraydi: *anaokulu, ilkokul, ortaokul, yükseköğretim*.

Ikki tilda ham birikmalarning hokim sōzi oxirida keladi: *teacher training programme – öğretmen yetiştirme programı*. Farq komponentlarni bōğlovçi vositada: ingliz tilida aloqa faqat sōz tartibi orqali ifodalanadi, turk tilida esa hokim sōzga *-(s)I* egalik qōşimçasi qōşiladi (izofa). Turk tilida eng mahsuldor modellar:

belgisiz izofa (*belirtisiz isim tamlaması*): *ders kitabı, eğitim fakültesi, öğretim programı*;
sifatli birikma (*sıfat tamlaması*): *yüksek lisans, mesleki eğitim, örgün eğitim, yaygın eğitim*;
kōp komponentli birikmalar: *hayat boyu öğrenme, ağırlıklı genel not ortalaması*.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ingliz tilida asosiy modellar: N+N (*lesson plan, exam paper*), Adj+N (*higher education, formative assessment*), N+N+N (*teacher training programme*), Adj+N+N (*continuing professional development*).

Ingliz tilida qisqartmalar xalqaro ta'lim tuşunçalarini ifodalaydi: *GPA* (grade point average), *ECTS* (European Credit Transfer System), *EFL, ESL, TESOL, MOOC, STEM, CPD*. Turk tilida ular asosan muassasa va imtihon nomlarida uçraydi: *YÖK* (Yükseköğretim Kurulu), *MEB* (Millî Eğitim Bakanlığı), *ÖSYM* (Ölçme, Seçme ve Yerleştirme Merkezi), *YKS, KPSS, LGS*. Ayrim qisqartmalar ingliz tilidagi qisqartmaning kalkasi hisoblanadi: *AKTS* (Avrupa Kredi Transfer Sistemi) < *ECTS*.

Termin ideal holatda bir ma'noli bōlişi kerak, ammo ta'lim terminlarining bir qismi umumiste'mol sōzlardan terminlaşgani uçun kōp ma'nolidir. Ingliz tilida: *course* ('kurs', 'fan'), *class* ('sinf', 'dars', 'guruh'), *grade* ('baho', AQŞda 'sinf, bosqiç'), *degree* ('ilmiy daraja', 'diplom'). Turk tilida: *ders* ('dars', 'fan'), *sınıf* ('sinf xonasi', 'kurs, bosqiç', 'sinf jamoasi'), *not* ('baho', 'qayd'), *bölüm* ('yōnaliş, kafedra', 'bob').

Ikki tilda sinonimiyaning manbalari har xil. Ingliz tilida u asosan hududiy va uslubiy farqlardan kelib çiqadi: *pupil / student*, *term / semester*, *headteacher / principal*, *marks / grades*, *exam / examination / test*. Turk tilida esa sinonimiya tarixiy xususiyatga ega: til islohoti natijasida yangi turkiy termin bilan eski arab-fors termini yonma-yon qolgan: *öğrenci / talebe*, *sınav / imtihan*, *öğretim programı / müfredat*, *öğretmen / muallim*.

Ta'lim terminlari bir neça mikromaydonlarga birlaşadi. Ikki tilda ham mikromaydonlar tarkibi deyarli bir xil, bu esa ta'lim tuşunçalarining umumiyligidan dalolat beradi.

Mikromaydon	Ingliz tili	Turk tili
Ta'lim subyektlari	teacher, student, lecturer, tutor	öğretmen, öğrenci, öğretim üyesi, danışman
Ta'lim bosqiçlari	preschool, primary, secondary, higher education	okul öncesi, ilkokul, ortaokul, lise, yükseköğretim
Ta'lim jarayoni	lesson, lecture, seminar, assignment	ders, seminer, ödev, uygulama
Baholaş	assessment, exam, grade, credit	ölçme ve değerlendirme, sınav, not, kredi
Ta'lim hujjatlari	diploma, transcript, certificate, curriculum	diploma, transkript, sertifika, öğretim programı

Ingliz tilidagi ta'lim terminlarining salmoqli qismi lotin, yunon va fransuz tillaridan kirgan: *curriculum, syllabus, campus, alumni, pedagogy, diploma*. Turk tilida uch qatlam ajraladi: arab-fors qatlami (*müfredat, maarif, mezun, talebe*), fransuz qatlami (*pedagoji, didaktik, akademi, seminer, sertifika*) va sōnggi davrdagi ingliz tili ta'siri. Ingliz tili ta'siri kōpinça kalka yōli bilan amalga oşadi: *uzaktan eğitim < distance education*, *hayat boyu öğrenme < lifelong learning*, *öğrenme çıktıları < learning outcomes*, *öğrenci merkezli eğitim < student-centred education*, *e-öğrenme < e-learning*. Kalkalar turk tilining grammatik modeliga, ya'ni izofa qurilmasiga moslab yasaladi.

Tahlil natijalari ikki terminotizimning tipologik farqlari ularning til tuzilishidan kelib çiqişini kōrsatadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Belgi	Ingliz tili	Turk tili
Til tipi	analitik	agglyutinativ
Yetakçi yasaliş usuli	birikma, kompozitsiya, prefiks va suffiks	suffiksatsiya, izofa birikmalari
Prefikslar	faol	deyarli uçramaydi
Birikmada komponentlar aloqasi	sōz tartibi	*-(s)I* egalik qōşimçasi
Qisqartmalar	xalqaro tuşunçalar uçun keng tarqalgan	asosan muassasa va imtihon nomlari
Ōzlaşmalar manbai	lotin, yunon, fransuz	arab-fors, fransuz, ingliz (kalka)
Sinonimiya manbai	hududiy va uslubiy farqlar	tarixiy (til islohoti)

Xulosa

Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ingliz va turk tillaridagi ta'lim terminlari tuziliş jihatidan bir xil turlarga ajraladi: sodda, yasama, qōşma terminlar, terminologik birikmalar va qisqartmalar. Ammo bu turlarning mahsuldorligi ikki tilda turliça.

Ingliz tilida terminlar asosan birikma, kompozitsiya va prefiks-suffiks yordamida hosil bōladi, qisqartmalar ham keng qōllaniladi. Turk tilida esa agglyutinativ suffiksatsiya va izofa birikmalari yetakçi, prefiksatsiya deyarli uçramaydi. Ikki tilda ham terminologik birikmalarning hokim sōzi oxirida keladi. Ammo komponentlar aloqasi ingliz tilida sōz tartibi, turk tilida esa *-(s)I* egalik qōşimçasi orqali ifodalanadi. Semantik jihatdan ikki tilda ham polisemiya kuzatiladi, bu terminlarning umumiste'mol sōzlardan kelib çiqqani bilan bōğliq. Sinonimiya ingliz tilida hududiy va uslubiy, turk tilida esa tarixiy xususiyatga ega. Turk ta'lim terminologiyasi ingliz tili ta'sirida asosan kalka yōli bilan boyimoqda, kalkalar esa turk tilining grammatik modeliga moslaşadi.

Olingan natijalar ta'lim terminologiyasini qiyosiy ōrganiş, tarjima amaliyoti, ikki tilli sohaviy luğatlar tuziş hamda ōzbek ta'lim terminlarini unifikatsiyalaşda qōllanilişi mumkin. Kelgusida ōzbek tilini ham qamrab olgan uç tilli qiyosiy tadqiqot olib boriş maqsadga muvofiq. Turkiy til sifatida turk tilining tajribasi ōzbek terminologiyasi uçun ayniqsa qimmatli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология // Вопросы терминологии: Материалы Всесоюзного терминологического совещания. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С. 46–54.
2. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – 3-е изд. – М.: Издательство ЛКИ, 2007.
3. Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1990.
4. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

5. Abdujabarova K. X. et al. INNOVATIVE METHODS OF USING READING AND LISTENING COMPREHENSION METHODOLOGY IN DEVELOPING STUDENTS'COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH //Acta Innovations. – 2026. – С. 505-512.
6. Abdujabborova K. H. Q., Saidova Z. U. TECHNOLOGY OF USING COMMUNICATION EXERCISES TO DEVELOP READING SKILLS IN ENGLISH LANGUAGE LESSON //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 24. – С. 11-15.
7. Agzamovna T. U. INTEGRATING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOAL 4 INTO FOREIGN LANGUAGE EDUCATION: INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES //Articlelibrary. – 2026. – Т. 1. – №. 2.
8. Ruslanovna D. S. TEACHING ENGLISH LOANWORDS IN UZBEK LANGUAGE CLASSES: AN INTEGRATIVE APPROACH //International Conference on Artificial Intelligence and Applications (ICAIA). – 2026. – Т. 7. – №. 01. – С. 116-118.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.